

**SURXONDARYO OKRUGIDA SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA SOG'LIQNI****SAQLASH TIZIMINING TASHKIL ETILISHI**

Mamatraimov Urol Mamatmurodovich

Tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20199462>

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda Surxondaryo okrugida sovet hokimiyati davrida sog'liqni saqlash tizimining tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda okrugda birinchi tibbiy muassasalarning ochilishi, yuqumli kasalliklarga qarshi kurash choralari, shifokor va o'rta tibbiyot xodimlarining faoliyati hamda mavjud muammolar – malakali kadrlar yetishmasligi, moddiy-texnik bazaning pastligi va mahalliy aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishdagi kamchiliklar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sog'liqni saqlash tizimi, yuqumli kasalliklar, bezgak, tif, vabo, sanitariya-profilaktika, tibbiy kadrlar yetishmasligi, epidemiyaga qarshi kurash.

Insonlar salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, ular umrini uzaytirish to'g'risida g'amxo'rlik qilish, tibbiy xizmat sifatini yaxshilash har bir davlat ijtimoiy siyosatining muhim qismi hisoblanadi. Davlatlar tarkib topgandan keyingi o'tgan barcha davrlarda o'z fuqarolarining sog'lig'ini saqlashni hukumat siyosati darajasiga ko'tarib, uni amalga oshirish harakat qilingan.

Sovet davrining dastlabki bosqichida Surxon vohasida tibbiy xizmatning yo'lga qo'yilishi mahalliy aholining sog'ligini saqlash uchun emas, balki ko'proq bu yerda ish olib borgan yevropaliklar hamda harbiylar salomatligini nazorat qilish uchun yo'lga qo'yilgan edi. Okrug sog'liqni saqlash bo'limi mudiri lavozimida faoliyat olib borgan A.Shevalovichning ma'ruzasidan shuni bilish mumkinki, okrugdagi birinchi kasalxonasi 10 o'rinli bo'lib, 1924-yil may oyida tashkil topgan. Sog'liqni saqlash bo'limida 1925-1926-yillarda bor-yo'g'i 7 kishi faoliyat yuritgan edi [1]. Okrug sog'liqni saqlash bo'limi tasarrufida 4 ta tibbiy punkt bo'lib, unda 2 ta shifokor va 4 nafar feldsher ish olib borgan. Tabiiyki, yuqumli kasalliklar eng avjiga chiqqan o'sha davrda ular butun okrug aholisining salomatligini nazorat qila olmas edilar [2].

1920-yillarda aholi o'rtasida xavfli yuqumli kasalliklar – bezgak, tif, vabo, sariq, traxoma, pashshaxo'rda va qon kasalliklari ko'plab uchrab turar edi. Voha aholisi zamonaviy tibbiyotga deyarli murojaat qilmas, asosan, an'anaviy xalq tabobatidan foydalanilar edi.

1925-1926-yillarda vohada tibbiyot muassasalarini ochish va ularni mutaxassislar bilan ta'minlashga asosiy vazifa deb qaralgan [3]. 1925-yilda tashkil topgan Surxondaryo okrugining markazi Sherobodda shifoxona tashkil etish borasida ish olib borildi. Chunki, yuqorida sanab o'tilgan yuqumli kasalliklarga qarshi kurash muhim ishlardan biri hisoblangan [4]. 1926-yilda 25 o'ringa mo'ljallangan okrug shifoxonasi qurib bitkazildi. Bu davrda Surxondaryo okrugining ko'pgina tumanlarida tibbiy ko'riklar va kam o'rinli kasalxonalar ochildi.

1926-yilga kelib Termiz shahri kasalxonasi 20 o'ringa kengaytirilib, ambulatoriya deb yuritila boshlandi. Sherobod shahrida shifokor-mutaxassisga ega bo'lgan medpunkt, "Poshxo'rd" qishlog'ida feldsherlik punkti, Boysun shahrida tibbiy punkt, Yurchi va Sariosiyoda tibbiy yordam ko'rsatish punkti shaklidagi sog'liqni saqlashga qaratilgan shaxobchalar faoliyat yurita boshladi. Bularning barchasida harbiy qism shifokorlari bilan hamkorlikda vohaga yuborilgan tibbiyot xodimlari ish olib bordi. Chunki, keltirilgan tuman va shaharlarda harbiylar garnizoni joylashgan edi. Termiz shahridagi shifoxonada faqat fuqarolar shifokori, davolovchi

shifokor va doya, ya'ni bor-yo'g'i uch kishi faoliyat yuritdi. Okrug kasalxonasi markaziy binosi harbiy chegarachilar qism otryadining 31-Amudaryo qo'riqchi brigadasi binosida joylashgan bo'lib, bino 1889-yilda qurilgan edi [5].

Biroq, moddiy-texnik sharoit juda og'ir edi. Kasalxona uchun berilgan mavjud binoning deraza romlari juda katta, tomidan qish oylarida yomg'ir tomchilab turganligi bois juda sovuq va davolanish uchun sharoitlar yo'q edi. 1926-yilda qishloq tibbiyot bo'limlarida 10 645 kishi ro'yxatdan o'tib davolangan. Shundan bitta doyaga 7442 nafar xotin-qizlar to'g'ri kelgan [6]. Keyingi davrda qishloq aholisi sog'lig'ini saqlash maqsadida, okrugning barcha shifoxona va ambulatoriyalari xodimlariga voha aholisi orasida yuqumli kasalliklarning oldini olish uchun emlashni yo'lga qo'yish vazifasi topshirildi.

1927-yil 6-iyulda okrug ijroqo'mining shaharlarda sanitar holatni yaxshilash to'g'risidagi qarori qabul qilindi. 1927-yilning ikkinchi choragida Boysun tumanida 20 o'rin, Denov tumanida 40 o'rin, Sariosiyo tumanida esa 25 o'ringa mo'ljallangan kasalxona ochish rejalashtirildi [7]. 1928-yili eski kasalxona okrug markazi Termiz shahriga ko'chirildi va 1-okrug shifoxonasi deb nomlandi. Uni tibbiy kadrlar bilan ta'minlashda harbiy qismdan bo'shab, ishsiz qolgan tibbiyot xodimlaridan foydalanilgan [8].

Okrug kasalxonasining bosh shifokori A.Topilskiyning tashabbusi bilan bolalar bo'limi, tish davolash xonasi, xotin-qizlar poliklinikasi, ichki kasalliklar, jarrohlik va ko'z kasalliklari bo'limi tashkil qilindi. Lekin, o'sha vaqtda davolanish hamda shifokor ko'rigidan o'tish pullik qilib belgilangan edi. Bir bemorning tibbiy ko'rigi uchun 50 kopeyek, bir bemorning bir kechakunduz yotib davolanishi uchun 3 rubl, jarrohlik amaliyoti ko'rsatilganda dori va bog'lovlar ketishiga qarab 10-20 rublgacha to'langan. Bu belgilangan narx oddiy mehnatkash aholi uchun qimmatlik qilgan [5, B.4].

1929-1930-yillarda viloyat sog'liqni saqlash ishlari uchun 764 230 so'm pul sarflandi. Bu mablag'lar evaziga davolash o'rinlarining soni oshdi, tibbiyot sohasida malakali xodimlarning ishlashi uchun qulay sharoitlar yaratildi [9, B.189]. Unga ko'ra, bir o'ringa kattalar uchun bir yilga 50 rubl, bolalar uchun – 45 rubl sarflanishi zarurligi aytib o'tildi.

1936-yilga kelib Surxondaryo okrugining markazi – Termiz shahrida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida vodoprovod quvurlari o'tkazildi. Buning uchun zarur bo'lgan 67 000 rubl miqdoridagi mablag' O'zSSR Xalq Komissarligi tomonidan ajratildi [10]. Shu yilning o'zida O'zbekistonda teri-tanosil kasalliklari instituti Surxondaryo okrugiga tibbiy ekspedisiya tashkil qildi. Ekspedisiyaning maqsadi teri-tanosil, zamburug', moyxo'rak va temiratki kasalligi bilan og'rikan bemorlarni ko'rikdan o'tkazishdan iborat edi [11].

Qishloq joylarida ham sog'liqni saqlash maskanlari tashkil etila boshlandi. 1930-yilda 50 o'ringa mo'ljallangan bir qavatli shifoxona qurilib ishga tushirildi. Shifoxona xodimlari o'sha yillarda Jarqo'rg'on tumanidan tashqari, Angor tumanining bir qismi va Qumqo'rg'on tumani aholisi va ko'chib kelganlarga tibbiy xizmat ko'rsatgan. 1939-yilda qishloq xo'jaligi mashina traktor stansiya (MTS) lari qoshida bitta 15 o'ringa mo'ljallangan bir oylik davolash statsionar bo'limi tashkil etildi [12].

Biroq, 1940-yillarga kelib ham tibbiy xodimlar yetishmasligi va tibbiy asbob-uskunalar taqchilligi sohadagi asosiy muammolardan sanalar edi. Masalan, 1941-yilda Sho'rchi tuman sog'liqni saqlash tizimida 5 nafar shifokor, 1 nafar feldsher, 7 nafar hamshira, 6 nafar akusherka, bitta tibbiyot xodimi faoliyat olib bordi [13]. 1941-yili viloyatdagi barcha qishloqlarning faqat 27 tasida qishloq shifokorlik punkti tashkil qilingan bo'lib, ularning 12

tasida o'рта tibbiyot xodimlari xizmat ko'rsatishar edi. Shu yili tibbiyot muassasalarini ko'paytirish hisobiga okrug aholisiga 1715 o'rinli jami 19 ta davolash muassasasi xizmat qilgan [9, B.190].

Xulosa qilib aytganda, joylarga zarur bo'lgan paytlarda markazdan malakali tibbiyot xodimlari chaqirtirildi, biroq, mahalliy kadrlar tayyorlashga umuman e'tibor berilmadi. Markazdan kelgan malakali tibbiyot xodimlari ma'lum muddat ishlab, sharoit yo'qligi tufayli yana ketib qolar edilar. Vohada aholini uy-joy bilan ta'minlash juda yomon holatda bo'lib, ishga kelgan tibbiyot xodimlari shu muammo sababli bu yerda qolishni istamaganliklarini ko'pgina manbalar ham tasdiqlaydi.

Ko'rib o'tilgan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, vohada aholi sog'lig'ini saqlash maqsadida sovet hukumatining dastlabki yillarida bir qancha amaliy ishlar olib borildi. Xususan, yangi tibbiy maskanlarni tashkil etish, shifokorlar va tibbiy xodimlar sonini ko'paytirish, ayrim kasalliklarning oldini olish va davolashda ijobiy natijalar kuzatildi. Lekin, shifoxonalar, ambulatoriyalar, tibbiyot xonalari va bolalar bog'chalari voha aholisi uchun yetarli emas edi. Shu bilan birga, tibbiyot maskanlari ta'minoti va moddiy-texnikaviy bazasi o'ta past darajada edi. Ushbu tajriba keyingi yillarda, ayniqsa Ikkinchi jahon urushi davrida viloyat sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan vazifalarning murakkabligini va ularni hal etishdagi qiyinchiliklarni tushunishga asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'z MA, P-86-fond, 1-ro'yxat, 2393-ish, 99-varaq.
2. O'z MA, P-86-fond, 1-ro'yxat, 2323-ish, 32-varaq.
3. O'z MA, P-86-fond, 1-ro'yxat, 2393-ish, 115-varaq.
4. Abdivoheed K. va boshqalar. Shifokorim (tarixiy lavhalar esselar). – T.: Istiqlol, 2006. – B. 5.
5. Raupov Sh., Do'sboyev A. Surxondaryo viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi 85 yoshda. – Termiz, 2009. – B. 4.
6. Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской области Узбекистана советского периода (1917-1932 гг.). – Т.: Фан, 1968. – С. 210.
7. O'z MA, P-86-fond, 1-ro'yxat, 4178-ish, 32-varaq.
8. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 77-fond, 2-ro'yxat, 5-ish, 264-varaq.
9. Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T., Murtazoyev B. Surxondaryo tarix ko'zglasida – T.: Sharq, 2001.
10. Правда Востока. – 1936. – 18 февраля.
11. Правда востока. – 1936. – 5 мая.
12. Jarqo'rg'on tuman davlat arxivi, 20-fond, 1-ro'yxat, 32-ish, 36-varaq.
13. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 77-fond, 2-ro'yxat, 20-ish, 11-varaq.